

Surxondaryo yoshlarini ezgu maqsad sari birlashtirgan festival



Surxondaryo yoshlarini ezgu maqsad sari birlashtirgan festival

Termiz shahrida “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shoiri ostida 15-17 iyun kunlari o‘tkazilgan Yoshlar festivali minglab o‘g‘il-qizlarni ayni ezgu maqsad sari birlashtirdi.

Ayniqsa, festival yakunida taniqli san‘atkorlar ishtirokidagi shou-kontsert unutilmas taassurotlarga boy bo‘ldi. Unda 80 mingdan ziyod yoshlar, qo‘shni mamlakatlardan mehmonlar qatnashdi. Surxondaryo viloyati hokimi To‘ra Bobolov shijotli o‘g‘il-qizlarni o‘ziga xos bayram bilan qutladi.

Tadbirda festival doirasida tashkil etilgan turli ko‘rik-tanlovlar, intellektual o‘yinlar, sport musobaqalari g‘oliblariga oltita 25 million so‘mlik, yoshlarning IT yo‘nalishidagi startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, viloyatdagi oliy ta‘lim muassasalarining iqtidorli talabalarini rag‘batlantirish maqsadida ta‘sis etilgan viloyat hokimi stipendiyasi uchun ikkita 1 milliard (jami 2 milliard 150 million) so‘mlik sertifikatlar topshirildi.